

RAUF PARFI IJODIDA METAFORIK IFODA
Tojamatova Sarvinoz Rustambek qizi
filologiya (o'zbek tili) fakulteti III bosqich talabasi
Email: sarvinoztojamatova@gmail.com
Diyoraxon Isomiddin qizi Toychiyeva
Kimyo ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabasi
Andijon davlat universiteti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6668180>

Annotatsiya

Maqolada Rauf Parfi ijodidagi metaforik ifodalar, o'xshatishlar haqida fikr yuritilgan, ayrim she'rlar tahliliga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: metaforik ifoda, ilohiy ishq, okkazional so'zlar, oksyumoronlar.

Ko'p asrlik o'zbek she'riyati XX asrda nozik insoniy tuyg'ularni, davr ruhini o'zida aks ettirib, xilma-xil yo'nalishlarda rivojlandi, o'zgacha ohangda kuylaydigan avlodni yetishtirdi. Ushbu avlodlari orasida o'z torini o'z noxuni bilan cherta olgan turkiynafas shoir Rauf Parfi ijodi o'zining isyonkor she'rlari bilan, takrorlanmas metaforalari bilan, go'zal oksyumoron va okkazional so'zlar yaratgani bilan ham ajralib turadi. Shoirning butun bir lirikasida o'ziga xos mushohada yo'sini, ruhiy kechinmalarning nozik ifodasi, quyma satrlarda so'zdan qanday injalik bilan foydalanganligida namoyon bo'ladi.

XX asr she'riyatiga xos bo'lgan metaforik tafakkur Rauf Parfi ijodida favqulotda o'ziga xoslik kasb etgan. Olim Baxtiyor Isabek Rauf Parfini olam yaxlitligi va inson olamning kichraytirilgan bir nusxasi-mikrokosmdir, degan so'fiy tushunchaga juda erta oshno bo'lganligini aytib, quyidagi she'r tahlilini beradi:

Osmon naq boshimning ustida turar,

Ichayotgan choyimga bulutlar qo'nar.

Qaldirg'ochlar bag'rini yerga urar,

Daraxtlar sinar ,oftob so'nar,

Meni tashlab qayga ketding, do'stim .

Bu beshlikda "olamdagi barcha narsa va hodisalar O'ziga qaytadi" degan so'fiylik tushunchasi ifoda etilgan. Odatiy va ko'rinib turadigan osmonni, biz hammamiz juda yuqorida deb anglaymiz va shunday qabul qilganmiz (Osmon –yiroq, yer qattiq). Rauf Parfining shoirona tasavvuri, o'sha yiroqdagi osmonni tortib boshining ustiga olib tushadi, (mantiqiy bog'lanish izchilligiga qarangki), demak osmon uning boshi ustiga kelgach, bulut uning piyolasidagi choyi ustiga qo'nadida. Ayni paytda bulut issiq choydan chiqadigan bug'ga ishorat qilib, bug' va bulut paydo bo'lish mohiyatiga ko'ra, hatto jarayoniga ko'ra bir xil ekanligini ifoda etishni ta'minlaydi. She'rda qaldirg'ochlar harakati bilan Inson uchun yagona

makon qilingan yerga qaytiladi. Osmon va yer bir joyga jamlanib osmon (Quyoshi bilan birga) va yer (Insoni va daraxtlari bilan birga) sinadi, so'nadi. To'rt misra bag'rida qazo va qadar bilan bog'liq o'ta murakkab falsafani singdira olgan shoir-mutafakkir tasvir chog'ida ma'nodan o'zi ham hayajonlanib, hatto qo'rqib, beshinchi misrada ana shu do'stlari va o'zi qayga ketib, qayda makon tutgani haqida o'ylanishni, fikrlashni, idrok qilishni o'quvchiga havola qiladi. Bu so'fiyona qarashlarni quyidagi misralarda ham davom ettirishimiz mumkin:

Ko'rmaganman sira ham seni.

Yuragimda chunki yashaysan

Ko'rmaganman sira ham seni

Yuragimga juda o'xshaysan

Yaxshi edi bir ko'rsam seni

Vaslingdan ham qo'rqaman biroq

Yaxshi bo'lur bir ko'rsam seni

Ko'rmaganim undan yaxshiroq.

She'rning birinchi misrasidanoq she'rni so'fiyona, ilohiy ishq bilan sug'orilganligini sezishimiz mumkin. Qalb-Allohning mulki. Qalbidagi Allohni bo'lsin deyishadi, aslida Allohga bo'lgan ishq, muhabbati nazarda tutiladi. Tasavvufga ko'ra Xudo ichimizdadir. Mo'min banda esa Allohni ko'rmagan holda uni sevadi, unga ishonadi, albattaki, qalbdagi iymoni kuchi bilan. Xo'sh, inson Allohni ko'rmasdan sevdi, unga ishondi, yuragida yashatmoqda, uning vaslini ko'rishga intilmoqda, lekin nima uchun uni ko'rishdan qo'rqyapti?! Uni sevar ekan uni ko'rishni xohlamaydimi?! Chunki inson yaratganning akbarligi oldida juda kichikdir. U qalbidagi Allohga bo'lgan ishq, muhabbati tufayli o'z xato va gunohlari bo'lgan holda Alloh bilan yuzlashishdan qo'rqadi. Ana shu gunoh va xatolarga tavba qilgachgina, uning rahmatiga umid bog'lagan holda Haqning vasliga yetishni xohlaydi. Zero u hali bu hayotda yashayapti, hali gunohlari uchun tavba qilib ulgurganicha yo'q. Shu o'rinda Maxtumlulining "Namasan?" she'ri yodimizga tushadi. Maxtumlul ham bu she'rida aslida ko'rmagan nigori (Alloh) ga muhabbatini ifoda etgan. Bir qarashda tushunarsizdek tuyiladigan bunday misralar aslida she'riyatga kirib kelayotgan ilk davridanoq o'zgacha edi.

Sharq Arastusi Forobiy Aristotelning "Poetika" asariga yozgan sharhlarida she'rdagi so'zning maqsad-mohiyati, poetik vazifalarini: "... ma'noni bildiradigan so'zlar sodda va murakkab bo'ladi. Murakkab bo'lgan so'zlar biror mulohazani anglatadi, yo anglatmaydi. Mulohazani anglatadiganlarining qat'iy jazmliligi va jazmsizi bo'ladi. Qat'iylari yo to'g'ri yo yolg'on bo'ladi. Yolg'onlarining ba'zilari eshituvchilar zehniga ma'nosi bilan o'rnashib qoladi, boshqalari esa kishi ongida narsalarning o'xshashi – aksi bilan o'rnashib qoladi.

Mana shu narsa o'xshatish- she'riy mulohazalar sanaladi..." (Forobiy. 1980. b. 64.) deydi. Demak bir qarashda tushunilishi murakkab bo'lgan bu misralardagi so'zlar zamirida chuqur mulohaza mavjud. Olam hodisalari inson va insondan boshqa barcha narsa va hodisalar zidligiga tayangan. Mana shu zidliklarda insondan boshqa hodisalar insonga xos xususiyatlarga ega bo'lish asosida metaforaga duchor qilinadi. Rauf Parfi ijodida esa tuyg'ular ifodasini tabiat hodisalari, borliqdagi mavjudotlar bilan ifodalash kuchli:

Xayrlashdik... o'ynar kapalak

Biz asir bo'lmadik lahzaga

Xayrlashdik beso'z, beyurak

Bu bog', bu gul keldi larzaga...

to'rtligi bilan boshlanuvchi she'rida yigit va qizning she'r davomida sababi aytilmagan ayrilayotgandagi holati tasvirlangan. Xalq tasavvurida kapalak beqarorlik, bevafoqlik, o'tkinchilik timsoli. Bu o'rinda kapalak o'yini barqaror bo'lmagan sevgiga ishoradir. Lirik qahramonlar esa muhabbatni eng yuksak, noyob tuyg'u sifatida anglab yetmadilar (Biz asir bo'lmadik lahzaga). Shuning uchun ham o'rtada chin ishqiy munosabatdan zarracha ham yo'q va ular "beso'z, beyurak" xayrlashishmoqda. Bu holatdan esa muhabbat saltanatining (Bu bog') sadoqatli vakillari (bu gul) larzaga kelmoqda. Sevgiga bevosita aloqador bo'lmagan kapalak aytilmoqchi bo'lgan yetakchi fikr-g'oyani yuzaga chiqarishga va oydinlashtirishga xizmat qilgan.

Nima qilib qo'yding, quyosh

Nima qilib qo'yding.

Eritib yubording-ku suv qilib, qurmag'ur,

Takrorlanmas mo'jizani darchamda

Xonaning darchasidan biz tashqari olamni, tabiatni, atrof-muhitni ko'rishimiz mumkin. Endi tasavvur qilaylik, derazaning ortidagi borliq bu butun bir katta hayot, darcha esa katta hayotning boshlanish ibtidosi. U holda mo'jiza nima, nega u aynan takrorlanmas?! Balki bu mo'jiza inson umrining qordek toza va musaffo yoshligi, bolaligidir. Inson darcha orqali tashqari olamga o'tmoqda va uni darcha ortida tongda butun borliqni uyg'otguvchi, erta bahorda tanlarga yoquvchi, saratonda esa kuydurguchi quyosh- hayot qarshi olmoqda. Bir tushgan suvga qayta tushib bo'lmaganidek, yoshlikka ham qaytib bo'lmaydi, undan faqat takrorlanmas xotiralar qoladi. Shuning uchun ham quyosh yoshlikni eritib, suv kabi oqizib inson umrining katta hayotining boshlanish pog'onasi-darchasida qoldirmoqda. She'rni bir o'qishda derazaga qo'ngan qorni eritib yuborgan charaqlab turgan quyosh manzarasi, tabiat manzarasi ko'z oldingizda gavdalanadi. Takror o'qiganingizda esa ikkinchi bir boshqa hissiyotlar beradi:

darcha bu balki ko'zdir. Shoir bir she'rida "ko'zlarimda yumaloq sevgi" deb yozadi. Darcha ko'z bo'lsa, darchadagi mo'jiza bu sevgi, quyosh esa xiyonat, sevgini yo'q qilguvchi, go'yoki eritib yuborguvchi xiyonat... Shoirning qalbi shu qadar kengki, xiyonatni ham kechirib yuboradi, buning isboti esa xiyonatni "qurmag'ur" deya mayin erkab qo'yishida namoyon bo'ladi. Tabiat hodisasi-quyosh qor, muzni eritishi hodisasi inson qalbidagi kechinmalar bilan uyg'un holda shu to'rt misrada raufona metaforik ifodasini topgan.

Rauf Parfi ijodi misoli botayotgan quyoshga o'xshaydi. Quyosh botgach tun kiradi, bu shubhasiz. Ufq, tun esa faqat g'am-anduhlar, qora kunlar ramzi emas. Tun –bu sukunat, osoyishtalik, sirlarni anglash vaqti, o'zingni, o'zligingni anglash vaqti, kun davomida o'tkazgan vaqtingni, qilgan ishlaringni sarhisob qilish vaqti va albatta tun ortidan keladigan ertangi tong, yangi kun uchun tuzilajak rejalar vaqti... Quyosh qanchalik qizarib botsa, ufqda qizil nurlarini qoldirsa ertangi kun shunchalik ochiq va musaffo bo'ladi, deyishadi. Rauf Parfi ijodi ham qizarib botayotgan quyosh kabi ertangi kun, kelajak uchun o'zining musaffo tuyg'ularini, ochiq bo'lmasada murakkab, ammo teran satrlarini qoldirdi. Undan bahramand bo'lganingiz sari yangi-yangi qirralarni o'zingiz uchun kashf etib boraverasiz. She'riyat esa shunday bir kuchki u sizning tuyg'ularingizni jumbushga keltiradi. Shoir o'z tuyg'ulari ishori bilan o'zi ham bilmagan holda kitobxonning ham ko'ngil bekatlariga to'xtab o'tadi. Go'yoki bu tuyg'ular avtobusi o'qiguvchining ko'nglidagi tuyg'ularni ham tuyg'udoshlari bilan olib boshqa manzilga ketadigandek. Rauf Parfi ijododagi ramzlar, o'xshatishlar, topilmalar esa har qanday so'zga oshno qalbni o'ziga jalb etmay qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent 2017.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent 2019.
3. Saidova R. Murodov G'. Badiiy matnda belgi munosabatlari. Toshkent 2019.
4. Asqad Muxtor. Rauf Parfi. Sharq yulduzi. 1966. №1
5. Rauf Parfi. Qaytish. Toshkent 1981.
6. Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Toshkent 2013.
7. Rauf Parfi. Sakina. Toshkent 2013.